



“TERMIZ” DAVLAT MUZEY-QO‘RIQXONASI EKSPOZITSIYASIGA QO‘YILGAN KO‘RGAZMALAR: TABIAT BO‘LIMI MISOLIDA.

Pardayeva Shaxriniso Turayevna

“Termiz” davlat muzey-qo‘riqxonasi
bo‘lim boshlig‘i

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14883733>

ARTICLE INFO

Received: 11th February 2025

Accepted: 12th February 2025

Published: 17th February 2025

KEYWORDS

“Termiz” davlat muzey-
qo‘riqxonasi, 1933-yil, muzey, bo‘lim,
ekspozitsiya, ko‘rgazma, ashyo,
namoyish, fond, preparat, mintaqa,
kolleksiya, to‘plam, burchak, tur, doir,
faoliyat, jonli burchak, hayvonot
dunyosi, o‘simlik, bug‘doy, paxta.

ABSTRACT

Mazkur maqola, hozirgi kunda faoliyat olib
borayotgan Surxon zaminining keksa
maskanlaridan biri bo‘lgan “Termiz” davlat
muzey-qo‘riqxonasida tashrifchilar uchun
nomoyishga qo‘yilgan ashyolar ko‘rgazmasi
haqida qisqacha yozildi.

O‘zbekistonning janubiy darvozasi sanalgan Surxon zamini va uning markazi bo‘lgan Termiz shahri ham o‘zining qadim tarixi, bebaho moddiy va ma‘naviy madaniyati bilan vatanimiz tarixida muhim o‘rin tutadigan maskanlardan biri sanaladi. Chunki ushbu mintaqa insoniyat tarixining muhim makonlaridan biri sifatida qadim davrlardanoq insoniyatga beshik bo‘lgan ilk tasviriy san‘at, ilk yozuv, sun‘iy sug‘orishga asoslangan dehqonchilik xo‘jaligi, mintaqadagi dastlabki shaharsozlik ana shu zaminda qaror topgan. Qolaversa, jahon dinlari sanalgan buddaviylik va islom dinining yuksalishida ham Surxon zaminining o‘rni beqiyos. Termiz shahrida butun bir tarixni o‘zida jamlagan maskanlardan biri “Termiz” davlat muzey-qo‘riqxonasi (oldingi Surxondaryo viloyat O‘lkashunoslik muzeyi) hisoblanadi.

“Termiz” davlat muzey-qo‘riqxonasi 1933-yilda tashkil etilgan. Muzey I-toifali muzey bo‘lib, birinchi ekspozitsiya 1933-yil 7-sentabr kuni yaratilgan. Muzey yaratilishining tashabbuskori muzeyning birinchi direktori G.V. Parfiyonov bo‘lgan. “Termiz” davlat muzey-qo‘riqxonasi beshta bo‘limdan tashkil topgan bo‘lib, Tabiat bo‘limi, Tarix bo‘limi, Tasviriy san‘at bo‘limi, Etnografiya bo‘limi va Fondlar bo‘limlaridan iborat. Muzey-qo‘riqxonasi binosi 3 qavatdan iborat bo‘lib, 4 ta bo‘limga doir ko‘rgazmalar namoyishga qo‘yilgan. Umumiy ekspozitsiya maydoni 3211 m² maydonda joylashgan bo‘lib 36 ta ko‘rgazmani o‘z ichiga oladi.

Tabiat bo‘limi

Mazkur bo‘lim Tabiat bo‘limi bo‘lib, ekspozitsiya zali 8 ta ko‘rgazmadan iborat: Ular:

- ho‘l preparatlar ko‘rgazmasi;
- cho‘l mintaqasi ko‘rgazmasi;

- to'qay mintaqasi ko'rgazmasi;
- adir mintaqasi ko'rgazmasi;
- tog' mintaqasining ko'rgazmasi;
- toshlar kolleksiyasi ko'rgazmasi;
- gerbariylar ko'rgazmasi;
- paxtachilik, bug'doychilik va pillachilik to'plamlari ko'rgazmalaridan tashkil topgan.

"Termiz" davlat muzey-qo'riqxonasi 1933-yildan buyon faoliyat yuritib kelayotgan keksa muzeylardan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda ushbu muzey tarkibida faoliyatini davom ettirib kelayotgan bo'limlardan biri "Tabiat" bo'limi hisoblanadi. Tabiat bo'limi muzey tashkil etilgan vaqtdan buyon faoliyatini davom ettirib kelayotgan bo'lim desak adashmagan bo'lamiz. Bu bo'lim

1934-yilda tashkil etilgan. Dastaval Tabiat bo'limi muzey qoshida jonli burchak shaklida tashkil qilingan bo'lib tashrifchi bolajonlarni ko'nglini ko'tarish maqsadida u yerda turli xildagi tirik hayvonlar saqlangan. O'sha davrlarda muzeylarga kirish tashrifchilar uchun bepul bo'lgan. Jonli burchakda saqlanayotgan hayvonlar esa avvaliga tashrifchilar olib kelgan ozuqalar hisobiga kun kechirishgan, bolajonlar hayvonlarni ko'rishga qiziqib o'zlari bilan u bu yegulik olib qaytishgan. Vaqt o'tib jonli burchakda saqlanayotgan hayvonlar soni oshib boravergan, ularga ozuqa yetkazib berish muzey xodimlarining asosiy va dolzarb muommosiga aylanib boravergan. Shundan so'ng muzey rahbariyati hayvonlarga ozuqa sotib olish uchun mablag' topish maqsadida kelishgan holda barcha tashrifchilar uchun muzeyga kirish pullik xizmatini joriy qilishgan. Muzeylarga kirish pullik bo'lsada u yerda saqlanayotgan hayvonlar barcha uchun qiziq bo'lgan va tashriflar soni kun sayin ortib boravergan. Vaqt o'tib hayvonlar soni ham ortib borishi natijasida hayvonlarga turar joylar muommoga aylanib boravergan. Natijada jonli burchakda saqlanayotgan hayvonlar alohidalanib muzey hududidan boshqa joyga o'tkazilib boqila boshlagan, ular soni ma'lum songa yetgach tegishli topshiriqlarga asosan hayvonot bog'iga aylantirilgan. Hozirgi kunda ham ushbu hayvonot bog'i o'z faoliyatini "Termiz hayvonot bog'i" nomi bilan davom ettirib kelmoqda. Shundan so'ng tabiat bo'limida faqatgina hayvonlarning chuchulalarigina saqlanadigan bo'ldi. Hozirda bo'limda 2000 ga yaqin hayvon chuchulalari, o'simliklardan tayyorlangan gerbariylar, hashorotlardan tayyorlangan suxoy preparatlar, umurtqali va umurtqasiz hayvonlardan ho'l preparatlar, tog' jinslari, foydali qazilmalar va paleontologik toshlardan iborat 2000 ga yaqin toshlar kolleksiyasi namunalari saqlanib kelinmoqda. Bo'limda saqlanayotgan ashyolar ko'rgazmasiga har 6 oyda o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilib borilmoqda. Ko'rgazmaga qo'yilgan ashyolar ichida Qizil kitobga kiritilgan hayvonlar hamda o'simliklar dunyosiga bo'lgan qiziqish tashrifchilar sonini oshirib bormoqda. Ayniqsa maxsus idishlarda saqlanib kelinayotgan turli xildagi sudralib yuruvchi hayvonlar, Buxoro bug'usi, bo'rsiq, uzunligi 3 metrgacha yetadigan bo'g'ma ilon, ko'k sug'ur, tog' echkisi, hajmi yirik bo'lgan boltayutar qush va oq boshli qumoy, turli xil o'simlik va baliq tasvirlari aks etgan paleontologik toshlar jamlanmasi tashrifchilarda katta qiziqish uyg'otib kelmoqda.

"Ho'l preparatlar" ko'rgazmasida hayvonot dunyosining turli sinf vakillaridan na'munalar qo'yilgan. Ko'rgazmaga suvda yashovchilar sinfiga kiruvchi turli xildagi noyob hamda "Qizil kitob"ga kiritilgan baliq turlari, suvda hamda quruqlikda yashovchilar sinfiga kiruvchi baqa hamda qurbaqalar, sudralib yuruvchilar sinfiga kiruvchi oyoqli va oyoqsiz turlaridan ilonlar, agamalar, kaltakesaklar va gekkonlarning maxsus idishlarda va formalinli suvlarda saqlanayotgan holatlari namoyishga qo'yilgan.

Cho'l mintaqasi, to'qay mintaqasi, adir mintaqasi va tog' mintaqasi ko'rgazmalariga Surxon vohasining mo'jizakor tabiati, tuprog'i, mintaqalarda uchraydigan o'simliklar va hayvonot dunyosidan na'munalar qo'yilgan. Har bir mintaqaning hayvonot dunyosi o'ziga xos ovozli tarzda, hayot tarzi kunduzgi va tungi holatlarda yoritilgan.

Toshlar kolleksiyasi ko'rgazmasida "Paleontologik toshlar" namoyishga qo'yilgan. Namoyishga qo'yilgan toshlarga tabiiy holda turli xil baliq izlari, o'simlik ildizlari qoldiqlari tushirilgan. Organizmlarning skeleti juda uzoq vaqt ko'milib yotsa ular toshga aylanadi. Bu jarayon minerallanish jarayoni bilan boradi, bu qoldiqlar toshga aylangan qoldiqlar deb ataladi. Ikki pallali chig'anoqlarning toshga aylangan qoldiqlari ham namoyishga qo'yilgan. Gerbariylar ko'rgazmasiga, Ko'hitang tog'i va Bobotog' etaklaridan yig'ilgan dorivor va efirmoyli o'simliklardan tayyorlangan gerbariylar namoyishga qo'yilgan. Namoyishga qo'yilgan gerbariylar 2019-yil "Termiz" davlat muzey-qo'riqxonasi ilmiy xodimlari hamda Termiz davlat universitetining Tabiiy fanlar fakulteti mutaxassislari, professor o'qituvchilari hamkorligida tayyorlangan.

Paxtachilik, bug'doychilik va pillachilik to'plamlari ko'rgazmasida, pilla yetishtirish davrlari va pilladan olinadigan mahsulotlar, so'ngi yillarda Surxondaryolik seliksionerlar tomonidan yaratilgan bug'doy va paxtaning yangi navlari namoyishga qo'yilgan.

Bundan tashqari mazkur muzey-qo'riqxonaga tashrif buyurgan tomoshabinlar tasviriy san'at asarlari, surxon vohasi etnografiyasi va tarixiga doir 28 ta ko'rgazmani o'zida jamlagan ekspozitsiya bo'ylab sayohat qilishlari, mazmunli xordiq chiqarishlari, ma'naviy va ommaviy tadbirlarda ishtirok etishlari ham mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. I. T. Botirovning "Surxondaryo viloyati O'lkashunoslik muzeyi tarixi" nomli kitobi. O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi, "Fan" nashriyoti. Toshkent-2011
2. S. Inoyatovanning "Surxondaryo viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi-moziy ko'zgusi" nomli kitobi. "Surxon-Nashr" nashriyoti-2019
3. "Termiz" davlat muzey-qo'riqxonasining kirim kitoblari.
4. "Termiz" davlat muzey-qo'riqxonasining yillik hisobotlari va ma'ruza matnlari.

INNOVATIVE
ACADEMY